



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2024-yil "10" 06 № 1-9-6/2026

Qibray tumani

Toshkent davlat agrar unversiteti qoshidagi Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish bo'yicha Saralash komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-noyabrda 3476-son bilan ro'yxatga olingan Qishloq xo'jaligi vazirining 2023-yil 19-oktabrdagi 218-sonli buyrug'iga ko'ra "Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi" Nizomga asosan Toshkent davlat agrar unversiteti qoshidagi Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berishni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-noyabrda 3476-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Qishloq xo'jaligi vazirining 2023-yil 19-oktabrdagi 218-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Toshkent davlat agrar unversiteti qoshidagi Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish bo'yicha Saralash komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish va arizalarni ko'rib chiqish tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Saralash komissiyasiga:

o'z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik, betaraflik va shaffof ravishda asosida amalga oshish;

bitiruvchilar tomonidan tavsiyanoma berish uchun qilingan murojaatlarni 2024-yilning 25-iyuniga qadar qabul qilish;

bitiruvchilar tomonidan tavsiyanoma olish uchun qilingan murojaatlarni faqatgina 2023-2024-o'quv yili bitiruvchilarining arizalarini ko'rib chiqish;

suhbat jarayoni real vaqt rejimida (onlayn) kuzatib borilishini ta'minlaydigan xonada o'tkazish;

bitiruvchining akademik litseydagi umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi reyting natijalari bo'yicha 71 va undan yuqori foizni tashkil qilishiga qat'iy rioya qilish;

tavsiyanoma olgan bitiruvchilar ro'yxatini ilova qilgan holda saralash komissiyasi qarori qabul qilingandan so'ng 2 kundan kechikmasdan akademik litsey direktori buyrug'i bilan rasmiylashtirish;

tavsiyanoma berish haqidagi buyruq qabul qilingandan so'ng tavsiyanoma olgan bitiruvchilar ro'yxatini bir ish kun ichida universitetga yuborish;

tavsiyanoma olish davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Akademik litsey ijrochi direktori S. Kaxramonovga

Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalarni o'z vaqtida to'laqonli ravishda hal etish, tavsiyanoma berish tartibiga oid ma'lumotlar, ko'rgazmali axborotlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Tavsiyanomalarni to'g'ri va xolis berilishi bo'yicha barcha javobgarlik Saralash komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazorat qilishni O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Oblomurodov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-noyabrda 3476-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan Qishloq xo'jaligi vazirining 2023-yil 19-oktabrdagi 218-sonli buyrug'i.

Birinchi prorektor



S. Islamov



Toshkent davlat agrar universiteti
rektorining
2020.06.08
1228 -sonli
buyrug'iga
1-ilova

Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish bo'yicha

SARALASH KOMISSIYASI TARKIBI

- | | | |
|--------------------------------------|---|--|
| Oblomuradov
Narzullo
Naimovich | - | Saralash komissiyasi raisi , Toshkent davlat agrar universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor |
| G'afurov
Jahongir
Majid o'g'li | - | Komissiya a'zosi , Toshkent davlat agrar universiteti Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| Tillyayev
Shavkat
Amanovich | - | Komissiya a'zosi , Toshkent davlat agrar universiteti akademik litseyi "Informatika" fani o'qituvchisi |
| Ismailov
Xurshid
Esirgapovich | - | Komissiya a'zosi , Toshkent davlat agrar universiteti akademik litseyi "Tabiiy fanlar" kafedrasi mudiri |
| Xasanjanova
Manzura
Muxtarovna | - | Komissiya kotibi , Toshkent davlat agrar universiteti akademik litseyi O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari |



Toshkent davlat agrar universiteti
rektorining
06
2020 -sonli
buyruq'iga
Ilova

Akademik litsey bitiruvchilariga oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbatda qatnashish istagidagi abituriyentlarga tavsiyanoma berish va arizalarni ko'rib chiqish tartibi

1. Suhbat komissiya har yili 10-iyundan kechikmasdan kamida 5 nafar kishidan iborat va toq sonli tarkibda tuziladi. Suhbat komissiya tarkibiga Oliy ta'lim muassasasi va akademik litsey xodimlari kiritiladi.

Suhbat komissiyasi o'z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik va betaraflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Suhbat komissiyasiga komissiyaning boshqa a'zolari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi rais boshchilik qiladi. Suhbat komissiyasi faoliyatini tashkiliy ta'minlash uning kotibiga yuklanadi.

Oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori — akademik litsey direktori (keyingi o'rinlarda — akademik litsey direktori) lavozimi bo'yicha suhbat komissiyaning raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 20-iyundan kechikmasdan suhbat komissiyaga tavsiyanoma berishni so'rab ariza bilan murojaat qiladi. Bunda, ariza suhbat komissiya kotibiga topshiriladi.

Suhbat komissiya faqat komissiya tashkil etilgan tegishli o'quv yili bitiruvchilarining arizalarini ko'rib chiqadi.

3. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

shaxsini tasqidlovchi hujjat nusxasi;

fanlarni o'zlashtirganlik to'g'risida akademik ma'lumotnoma;

bitiruvchining chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat (agar mavjud bo'lsa);

4. Suhbat komissiya har yili 20-iyundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda bitiruvchilarning hujjatlarini ko'rib chiqadi.

5. Suhbat komissiyaning majlislar o'tkazish jadvali va majlisga taklif etilgan bitiruvchilar ro'yxati komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Majlislar o'tkazish jadvali akademik litseyning rasmiy veb-saytida majlis boshlanishidan kamida bir hafta avval e'lon qilinadi.

7. Suhbat komissiya majlisi komissiya a'zolarining barchasi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

8. Tavsiyanoma berish masalasi ko‘rib chiqilayotganda, suhbat komissiya quyidagi asosiy minimal talabni hisobga oladi:

a) bitiruvchining akademik litseydagi umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi reyting natijalari bo‘yicha 71 va undan yuqori foizni tashkil qilishi (5 (besh) baholik tizimda 4 (to‘rt) baho va undan yuqori bo‘lishi kerak);

Mazkur bandeda ko‘rsatilgan asosiy minimal talabga tegishli masalalarni ko‘rib chiqishda, bitiruvchining akademik litseydagi butun o‘qish davri hisobga olinadi.

9. Zarurat bo‘lganda, taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida bitiruvchi suhbat uchun suhbat komissiya yig‘ilishiga chaqirilishi mumkin. Suhbat jarayoni real vaqt rejimida (onlayn) kuzatib borilishini ta’minlaydigan xonada o‘tkaziladi.

10. Bitiruvchiga tavsiyanoma berish yoki tavsiyanoma berishni rad etish haqidagi suhbat komissiya qarori majlisda ishtirok etgan komissiya a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi hamda komissiya har bir a’zosining bitiruvchi to‘g‘risidagi asoslantirilgan fikri komissiya majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

11. Suhbat komissiya majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etgan barcha a’zolar tomonidan imzolanib, rais tomonidan tasdiqlanadi.

12. Suhbat komissiyaning qarori asosida akademik litsey direktori tomonidan bitiruvchiga tavsiyanoma beriladi.

13. Tavsiyanoma berish uni olgan bitiruvchilar ro‘yxatini ilova qilgan holda suhbat komissiyasi qarori qabul qilingandan so‘ng 2 kundan kechikmasdan akademik litsey direktori buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Tavsiyanoma olgan bitiruvchiga buyruqdan ko‘chirma beriladi.

14. Tavsiyanoma berish haqidagi buyruq qabul qilingandan so‘ng bir kun ichida qabul komissiyasiga foydalanish uchun yuboriladi.